



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolossova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna- i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent
Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

**Small business and private
entrepreneurship**

**Малый бизнес и частное
предпринимательство**



KICHIK BIZNES RAQOBATDOSHLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Shavkatov Abdusalim Shavkat o'g'li

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ МАЛОГО БИЗНЕСА

Шавкатов Абдусалим Шавкат оглы

EFFECTIVE USE OF FINANCIAL RESOURCES IN ENHANCING THE COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESS

Shavkatov Abdusalim Shavkat ogli

Received: June 1, 2026 Revised: June 6, 2026 Accepted: June 9, 2026 Published: June 30, 2026

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes subyektlarining raqobatdoshligini oshirishda moliyaviy resurslardan (bank kreditlari va investitsiyalardan) samarali foydalanishning iqtisodiy-ekonometrik jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda 2010–2024-yillar davriga oid yillik ma'lumotlar asosida logarifmik-chiziqli regressiya modeli qurildi. Natijalar moliyaviy resurslar hajmining kichik biznesda yaratiladigan yalpi qo'shilgan qiymatga elastik ($\beta \approx 1,07$) va statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Resurslar tarkibida bank kreditlarining hissasi investitsiyalarga nisbatan ustun ekanligi aniqlandi. Maqola yakunida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, raqobatdoshlik, moliyaviy resurslar, bank krediti, investitsiya, yalpi qo'shilgan qiymat, regressiya tahlili, elastiklik, samaradorlik.

Аннотация. В статье анализируются экономико-эконометрические аспекты эффективного использования финансовых ресурсов (банковских кредитов и инвестиций) в повышении конкурентоспособности субъектов малого бизнеса. На основе годовых данных за 2010–2024 годы построена логарифмически-линейная регрессионная модель. Результаты подтвердили эластичное ($\beta \approx 1,07$) и статистически высокозначимое влияние объема финансовых ресурсов на валовую добавленную стоимость, создаваемую в малом бизнесе. Установлено преобладание вклада банковских кредитов над инвестициями.

Ключевые слова: малый бизнес, конкурентоспособность, финансовые ресурсы, банковский кредит, инвестиции, валовая добавленная стоимость, регрессионный анализ, эластичность, эффективность.

Abstract. The article analyses the economic and econometric aspects of the effective use of financial resources (bank loans and investments) in enhancing the competitiveness of small business entities. A log-linear regression model is constructed using annual data for 2010–2024. The results confirm an elastic ($\beta \approx 1.07$) and statistically highly significant effect of the volume of financial resources on the gross value added generated by small business. The contribution of bank loans is found to dominate that of investment.

Keywords: small business, competitiveness, financial resources, bank loan, investment, gross value added, regression analysis, elasticity, efficiency.

■ KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini, bandlikni va hududiy taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy bo'g'inlardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi so'nggi yillarda barqaror yuqori

darajada — 2024-yil yakunida qariyb 55 foiz atrofida shakllangan bo'lib, sektor mamlakatda band aholining katta qismini ish bilan ta'minlamoqda. Biroq sektorning raqobatdoshlik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan moliyaviy resurslarning yetarililigi va, eng muhimi, ulardan samarali foydalanish darajasiga bog'liq.



Kichik biznes subyektlarining asosiy moliyaviy resurslari sirasiga bank kreditlari, jalb qilingan investitsiyalar, davlat subsidiyalari hamda korxonaning o'z mablag'lari kiradi. Ushbu resurslarning hajmi yildan-yilga ortib borayotgan bo'lsa-da, ularning iqtisodiy natijaga — qo'shilgan qiymat va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga aylanish darajasi, ya'ni foydalanish samaradorligi alohida ilmiy tahlilni taqozo etadi. Aynan moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi past bo'lganda, resurslar hajmining oshishi kutilgan iqtisodiy ta'sirni bermaydi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy resurslar va korxona raqobatdoshligi o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy adabiyotda keng o'rganilgan. J. Stiglitz va A. Weiss (1981) kredit bozorlarida axborot asimmetriyasi tufayli yuzaga keladigan kredit ratsionlash nazariyasini ishlab chiqib, kichik korxonalarning moliyaviy resurslarga kirishida tizimli cheklovlar mavjudligini asoslagan. A. Berger va G. Udell kichik biznesni moliyalashtirish xususiyatlarini tahlil qilib, bank-mijoz munosabatlariga asoslangan kreditlash (relationship lending) modelining samaradorligini ko'rsatgan.

Moliya tizimi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi sababiy bog'liqlik R. King va R. Levine (1993) hamda T. Beck va A. Demirgüç-Kunt tadqiqotlarida empirik tasdiqlangan: moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining kengayishi korxonalar o'sishini tezlashtiradi. Resurslardan foydalanish samaradorligini baholashning metodologik asosi M. Farrell (1957)

tomonidan taklif qilingan texnik va allokativ samaradorlik tushunchalariga borib taqaladi. J. Shumpeterning innovatsion tadbirkorlik nazariyasi esa moliyaviy resurslarning innovatsiyalarni moliyalashtirish orqali raqobatdoshlikka ta'sirini izohlaydi.

O'zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirish masalalari mahalliy tadqiqotchilar tomonidan faol o'rganilmoqda. Bir qator ilmiy ishlarda bank kreditlarining kichik biznes subyektlarini resurslar bilan ta'minlashdagi roli, kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Statistik tahlillarga bag'ishlangan ishlarda kichik biznesning YaIMdagi ulushi, investitsiyalar va korxonalar soni kabi ko'rsatkichlar regressiya usullari bilan baholangan. Shu bilan birga, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini elastiklik ko'rsatkichi orqali yaxlit baholashga qaratilgan tadqiqotlar nisbatan kam bo'lib, mazkur maqola shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda 2010–2024-yillarni qamrab oluvchi yillik vaqt qatori ma'lumotlaridan foydalanildi. Tahlil O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining «Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari» to'plamlari hamda Markaziy bankning kreditlash bo'yicha rasmiy ma'lumotlariga tayanadi. Modelda quyidagi o'zgaruvchilar tizimi qo'llanildi (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqot o'zgaruvchilari tizimi³⁰

Belgi	Ko'rsatkich mazmuni	O'lchov birligi
Y	Kichik biznesda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (raqobatdoshlik natijasi)	mlrd so'm
X1	Kichik biznesga ajratilgan bank kreditlari	mlrd so'm
X2	Kichik biznesga jalb qilingan investitsiyalar (asosiy kapitalga)	mlrd so'm
X3	Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	ming birlik
MR	Jami moliyaviy resurslar (X1 + X2)	mlrd so'm

Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash uchun logarifmik-chiziqli (Cobb–Duglas tipidagi) regressiya modeli tanlandi. Log-log spetsifikatsiyasining afzalligi shundaki, koeffitsiyentlar bevosita elastiklik sifatida talqin qilinadi — ya'ni resurs hajmining 1 foizga o'zgarishi natijada yaratiladigan qo'shilgan qiymatni necha foizga o'zgartirishini ko'rsatadi. Bu esa «samarali foydalanish» tushunchasini miqdoriy ifodalashga imkon beradi.

Model 1 (asosiy): $\ln(Y) = \beta_0 + \beta_1 \cdot \ln(MR) + u$

Model 2 (kengaytirilgan): $\ln(Y) = \alpha_0 + \alpha_1 \cdot \ln(X1) + \alpha_2 \cdot \ln(X2) + \alpha_3 \cdot \ln(X3) + \varepsilon$

Model parametrlari eng kichik kvadratlar usuli (OLS) yordamida baholandi. Modelning statistik sifati

R^2 , tuzatilgan R^2 , F-statistika va t-statistikalar orqali tekshirildi. Vaqt qatoriga xos avtokorrelyatsiyani hisobga olish maqsadida Nyui–West (HAC) mustahkam standart xatolari hisoblandi, multikollinearlik esa dispersiya inflyatsiya omili (VIF) yordamida diagnostika qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'rganilayotgan ko'rsatkichlarning tavsifiy statistikasi 2-jadvalda keltirilgan. Tahlil davrida barcha ko'rsatkichlar barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan: kichik biznesda yaratilgan qo'shilgan qiymat o'rtacha qiymati 242,8 trln so'mni, moliyaviy resurslarning asosiy qismi bo'lgan kreditlar o'rtachasi 37,2 trln so'mni tashkil etgan.

³⁰ Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

Ko'rsatkichlarning tavsifiy statistikasi (2010–2024)³¹

Ko'rsatkich	O'rtacha	St. og'ish	Min	Max
Y — qo'shilgan qiymat (mlrd so'm)	242 820	219 405,3	30 100	715 000
X1 — bank kreditlari (mlrd so'm)	37 187,4	26 645,3	6 200	92 424,8
X2 — investitsiyalar (mlrd so'm)	54 189,7	42 880,7	4 745,8	140 000
X3 — korxonalar soni (ming)	359,8	111,6	185,0	523,0

Ko'rsatkichlar dinamikasi 1-rasmda aks ettirilgan. Grafikdan ko'rinadiki, moliyaviy resurslar (kredit va investitsiya) hajmining o'sishi kichik biznesda

yaratiladigan qo'shilgan qiymatning o'sishi bilan yaqqol hamohanglikda kechgan.



1-rasm. Kichik biznes natijasi va moliyaviy resurslar dinamikasi, 2010–2024

Asosiy model natijalari (3-jadval). Sodda log-chiziqli regressiya moliyaviy resurslar hajmining qo'shilgan qiymatga ta'sirini yaxlit baholaydi. Moliyaviy resurslar elastikligi $\beta_1 \approx 1,070$ ni tashkil etdi va 1 foiz darajasida statistik ahamiyatli ($t = 27,11$). Bu shuni anglatadiki, moliyaviy resurslar hajmining 1 foizga

o'shishi kichik biznesda yaratiladigan qo'shilgan qiymatni o'rtacha 1,07 foizga oshiradi. Koeffitsiyentning birga yaqin (hatto bir oz undan yuqori) bo'lishi resurslardan foydalanishning yuqori — taxminan birlik darajadagi — samaradorligini ko'rsatadi.

3-jadval

Model 1 natijalari: $\ln(Y) \sim \ln(MR)$

O'zgaruvchi	Koeff.	Std. xato	t-stat.	p-qiymat
const (β_0)	0,109	0,439	0,25	0,808
$\ln(MR)$ — moliyaviy resurslar (β_1)	1,070***	0,039	27,11	< 0,001
$R^2 = 0,983$; tuzatilgan $R^2 = 0,981$		$F = 735,0$	$DW = 0,25$	


Izoh: *** — 1% darajada ahamiyatli. HAC (Nyui–West) mustahkam baholashda ham β_1 1% darajada ahamiyatli ($t = 20,54$).

Moliyaviy resurslar va qo'shilgan qiymat o'rtasidagi bog'liqlik 2-rasmda tarqoq diagramma

ko'rinishida tasvirlangan — nuqtalarning regressiya chizig'i atrofida zich joylashuvi bog'liqlikning kuchli ekanligini bildiradi.

³¹ Muallif hisob-kitoblari

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



2-rasm. Moliyaviy resurslar va kichik biznes natijasi o'rtasidagi bog'liqlik

Kengaytirilgan model natijalari (4-jadval). Resurslarni tarkibiy qismlarga ajratganda bank kreditlari ($\ln X1$) koeffitsiyenti 2,232 bo'lib, 1 foiz darajasida ahamiyatli ($t = 5,08$), bu kreditlarning kichik biznes

natijasiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi resurs ekanini tasdiqlaydi. Investitsiya ($\ln X2$) va korxonalar soni ($\ln X3$) koeffitsiyentlari esa statistik jihatdan ahamiyatsiz chiqdi.


4-jadval

Model 2 natijalari: $\ln(Y) \sim \ln(X1) + \ln(X2) + \ln(X3)$


O'zgaruvchi	Koeff.	Std. xato	t-stat.	p-qiymat	VIF
const	0,611	3,810	0,16	0,875	—
$\ln(X1)$ — bank kreditlari	2,232***	0,439	5,08	0,000	202,7
$\ln(X2)$ — investitsiyalar	-0,476	0,489	-0,97	0,351	379,4
$\ln(X3)$ — korxonalar soni	-1,112	1,688	-0,66	0,524	476,7
$R^2 = 0,993$; tuzatilgan $R^2 = 0,991$; $F = 511,1$; $DW = 1,59$					

Izoh: *** — 1% darajada ahamiyatli. Yuqori VIF qiymatlari (200 dan ortiq) o'zgaruvchilar o'rtasida kuchli multikollinearlik mavjudligini ko'rsatadi.

Modelning adekvatligi 3-rasmda — kuzatilgan va baholangan qiymatlarning deyarli ustma-ust tushishi orqali, regressiya qoldiqlarining tasodifiy taqsimoti esa 4-rasmda tasdiqlanadi.



3-rasm. Model adekvatligi: kuzatilgan va baholangan qiymatlar

**4-rasm. Regressiya qoldiqlarining taqsimoti**

Olingan natijalar moliyaviy resurslar hajmi bilan kichik biznes raqobatdoshligi natijasi o'rtasida kuchli, ijobiy va elastik bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Asosiy modelda elastiklik koeffitsiyentining birga yaqinligi resurslardan foydalanishning umumiy samaradorligi yuqori darajada saqlanib turganini bildiradi: resurslar o'sishi deyarli proporsional ravishda qo'shilgan qiymatga aylanmoqda. Kengaytirilgan modelda bank kreditlarining ustun ta'siri esa kreditlash kichik biznesni moliyalashtirishning eng ta'sirchan kanali ekanini tasdiqlaydi va kredit mexanizmlarini takomillashtirishning iqtisodiy asosli ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqot cheklovlar. Kengaytirilgan modelda dispersiya inflyatsiya omilining yuqoriligi ($VIF > 200$) o'zgaruvchilar o'rtasidagi multikollinearlikdan dalolat beradi — bu vaqt qatorida barcha ko'rsatkichlarning bir vaqtda o'sib borishi bilan bog'liq tabiiy holat. Shu sababli alohida koeffitsiyentlar (xususan, investitsiyaning manfiy ishorasi) iqtisodiy talqinda ehtiyotkorlik bilan qabul qilinishi lozim; aynan shu bois moliyaviy resurslarning yaxlit (MR) ko'rsatkichiga asoslangan Model 1 asosiy natija sifatida ustun hisoblanadi. Bundan tashqari, vaqt qatorining nisbatan qisqaligi ($n = 15$) va avtokorrelyatsiya ehtimoli (Model 1 uchun past Durbin-Watson qiymati) mavjud; bu cheklov HAC mustahkam standart xatolari orqali yumshatildi. Kelgusi tadqiqotlarda muammoni hududlar kesimidagi panel ma'lumotlar yoki resurs birligiga to'g'ri keladigan natija (samaradorlik koeffitsiyenti) ko'rinishidagi nisbiy o'zgaruvchilar yordamida bartaraf etish maqsadga muvofiq.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

Moliyaviy resurslar hajmi kichik biznes raqobatdoshligi natijasiga (yalpi qo'shilgan qiymatga) statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli va elastik ($\beta \approx 1,07$) ta'sir ko'rsatadi; bu resurslardan foydalanish samaradorligining umumiy darajasi yuqori ekanini bildiradi.

Resurs tarkibida bank kreditlarining hissasi investitsiyalarga nisbatan ustun bo'lib, kreditlash kichik biznesni moliyalashtirishning eng ta'sirchan vositasi hisoblanadi. Shu bois imtiyozli va uzoq muddatli kreditlash dasturlarini kengaytirish, garov talablarini moslashtirish va foiz xarajatlarini qoplash mexanizmlarini rivojlantirish tavsiya etiladi.

Investitsiyalarning nisbatan zaif statistik ta'siri ularning samaradorligini oshirish zaruratini ko'rsatadi: investitsiyalarni innovatsion va eksportga yo'naltirilgan loyihalarga yo'naltirish orqali ularning qo'shilgan qiymatga aylanish darajasini kuchaytirish lozim.

Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini monitoring qilish uchun resurs birligiga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat (samaradorlik koeffitsiyenti) ko'rsatkichini hududlar kesimida muntazam baholash maqsadga muvofiq.

Kelgusi tadqiqotlarda multikollinearlik va vaqt qatori cheklovlarini bartaraf etish uchun 14 hudud bo'yicha panel ma'lumotlarga asoslangan modellardan foydalanish tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // The American Economic Review. – 1981. – Vol. 71, No. 3. – P. 393–410.
2. Berger A.N., Udell G.F. The economics of small business finance: The roles of private equity and debt markets in the financial growth cycle // Journal of Banking & Finance. – 1998. – Vol. 22. – P. 613–673.
3. King R.G., Levine R. Finance and Growth: Schumpeter Might Be Right // The Quarterly Journal of Economics. – 1993. – Vol. 108, No. 3. – P. 717–737.
4. Beck T., Demirgüç-Kunt A. Small and medium-size enterprises: Access to finance as a growth constraint // Journal of Banking & Finance. – 2006. – Vol. 30. – P. 2931–2943.
5. Farrell M.J. The Measurement of Productive Efficiency // Journal of the Royal Statistical Society. Series A. – 1957. – Vol. 120, No. 3. – P. 253–290.
6. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
7. Gofurov D. Kichik biznes uchun soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash // Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. – 2025. – 2(5). – B. 191–200.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil). – Toshkent, 2025. – www.stat.uz



9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Kichik biznes subyektlarini kreditlash bo‘yicha statistik ma’lumotlar. – www.cbu.uz

10. O‘zbekiston raqamlarda: Statistik to‘plam. – Toshkent: Milliy statistika qo‘mitasi, 2024.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Shavkatov Abdusalim Shavkat o‘g‘li O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va

tadbirkorlik oliy maktabi tayanch doktoranti / Шавкатов Абдусалим Шавкат оглы Базовый докторант Высшей школы бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан / Shavkatov Abdusalim Shavkat ogli Doctoral researcher (PhD candidate) at the Higher School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

E-mail: abdusalimshavkatov9@gmail.com

ORCID: 0009-0004-7185-9725



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz